



Topishmoqning javobini toping.

Joni bor-u, qoni yo'q,
Yer ostida soni yo'q.

Topishmoqning javobini topishda qaysi so'zlar yordam berdi?



Audiomatni tinglang.
Chumoli va bug'doy donasi. (Ertak)

1



1. Nima uchun Bug'doy donasi yomg'irni sabrsizlik bilan kutib yotardi?
2. Ayting-chi, nega chumoli bug'doy donasini ko'rib xursand bo'ldi?
3. Ertakning asosiy g'oyasi nimada deb hisoblaysiz?
4. Nima uchun ertak shu bo'limda berilgan deb o'ylaysiz?
5. Dunyo ajoyibotlariga yana nimalarni misol qilib keltira olasiz?



bo'liq – yaxshi o'sgan
zil-zambil – og'ir



**Berilgan parchani o'qing.
Uni davom ettiring.**

– Agar seni tashlab ketsam, bola-chaqamiz bilan qishda och qolamiz, – debdi chumoli chuqur nafas olib, – biz juda ko'pchilikmiz. Har birimiz qishga ozuqa jamg'arishimiz kerak. Bug'doy o'ylanib turgach, dedi...

Berilgan parchani o'qing. Uni davom ettiring.

Chumoli ishonmay, bosh silkib qo'ydi.
– Hayron bo'lma, Chumolijon, rost gapiryapman. Menga ishonmasang qattiq adashasan. Agar so'zimga kirsang, birgina mening o'rnimga kelgusi yil yuz dona bo'liq donga ega bo'lasan.



Ertakning asosiy g'oyasiga qo'shimcha mavzuni aniqlang.

Ertak o'simliklar haqida.

Ertak mehnatkashlik haqida.

Ertak mehr-oqibat haqida.

Ertak ishonch haqida.

Ertak hasharotlarning qishki hayoti haqida.



Ertak qahramonlariga ta'rif bering.
Ertak asosida sahna ko'rinishi tayyorlang.



Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.